

ME'MORLIK VA TASVIRIY SAN'ATNING KESISHUVI: TOSHKENT SHAHRIDA MUSTAQILLIKDAN KEYIN QURILGAN INSHOOTLARDA MONUMENTAL SAN'ATNING AKS ETTIRILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17447454>

Shahzod Shomansurov Sharofiddin o'g'li

San'atshunos

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillikdan keyingi davrida Toshkent shahrida qurilgan jamoat inshootlari – metro bekatlari, teatrlar, madaniyat markazlari va istirohat bog'larida arxitektura va tasviriy san'atning kesishgan jihatlari o'rganiladi. Ayniqsa, monumental san'atning (haykaltaroshlik, mozaika, vitraj, freska va boshqalar) arxitektura bilan uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. Maqolada mustaqillik davri me'morchiligi orqali milliy o'zlik, estetik tarbiya va madaniy identifikatsiyaning ifodalanishi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются точки соприкосновения архитектуры и изобразительного искусства в общественных сооружениях, построенных в городе Ташкент в период после обретения независимости Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется анализу взаимодействия монументального искусства (скульптура, мозаика, витраж, фреска и др.) с архитектурной средой. В статье освещаются вопросы отражения национальной идентичности, эстетического воспитания и культурной самобытности через призму архитектурных решений независимого периода.

Abstract

This article explores the intersection of architecture and visual arts in public structures built in Tashkent during the post-independence period of the Republic of Uzbekistan. Special attention is given to the integration of monumental art forms (such as sculpture, mosaic, stained glass, fresco, and others) into architectural environments. The study highlights how national identity, aesthetic education, and cultural self-identification are expressed through the architectural developments of the independence era.

Kalit so'zlar

Me'morlik, monumental tasviriy san'at, ideologiya, sintez, Toshkent, milliy, estetika, inshoot, haykaltaroshlik,

Me'morlik doimo tasviriy san'at bilan uyg'unlikda bir-birini to'ldirib kelgan. Bu holat qadimdan davom etib kelayotgan jarayondir. Ayniqsa, monumental san'at arxitektura bilan birlashganida jamoat binolari, bog'lar va boshqa inshootlar o'ziga xos estetik va ideologik yuklamaga ega bo'ladi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahrida milliy uyg'unish ruhida qurilgan inshootlarda bu sintez yaqqol ko'zga tashlanadi.

Me'morlik - bu nafaqat muhandislik, balki milliy g'oya va estetik qarashlarning o'zaro uyg'unligi hisoblanadi. Tasviriy san'at esa bu binolar va inshootlarga ma'naviy-estetik teranlik beradi. Monumental san'at, xususan: haykaltaroshlik, mozaika, vitraj, ganchkorlik arxitekturaning estetik jihatini yanada kuchaytiradi va binoga o'ziga xos badiiy -g'oyaviy ruh beradi.

1991-yil so'nggi choragidan boshlab O'zbekistonda arxitektura sohasida milliy me'moriy an'analarni zamonaviy uslublar bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratila boshladi. Har bir mamlakatda milliy shaharsozlik va me'morlik davlatning tarixi, me'morlik an'analari, qadriyatlari, strategik tanlagan yo'li kabi jihatlarni aks ettiradi. Ayniqsa davlatning mamlakatning bosh shahri, poytaxtida qad rostlagan binolar barchani e'tiborini tortadigan, alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Toshkent shahrida bu tamoyillar muzeylar, san'at saroylari, boshqaruv binolari, istirohat bog'lari va turli madaniy inshootlarda o'z ifodasini topdi.

Asosiy tamoyillar:

- Milliy tarixga murojaat;
- Milliy naqshlar va bezaklarning qayta tiklanishi;
- Me'morlik uslublarida an'anaviy ko'rinish va zamonaviy dizayn, tasvirlarni aks ettirilishi kabi jihatlarda namoyon bo'ladi.

Ayniqsa so'nggi yillarda tasviriy san'atning jamoat makonlariga olib kirilishi yanada kuchaydi. Toshkent shahrida qurilgan muhim inshootlar va ular bilan bog'liq monumental san'at asarlari ko'p qo'llanila boshladi. Shuningdek, istirohat bog'lari va dam olish maskanlarida haykaltaroshlik asarlari keng tarzda aks ettirila boshladi. Bunday maskanlar sirasiga Mustaqillik bog'i va "Ezgulik arkasi", "Tashkent City bog'i", "Yangi O'zbekiston bog'i" kabi inshotlarni kiritishimiz mumkin. Masalan Mustaqillik maydoni majmuasidagi markaziy haykal - "Mustaqillik haykali", farzandini bag'riga bosgan ona siymosida tasvirlangan. Bu haykal o'zida g'amxo'rlik va tinchlik, bag'rikenglik, xurlik g'oyalarini aks ettiradi.

Majmuadagi yana bir san'at asari "Ezgulik arkasi" – ustunlar va ularga o'rnatilgan ramziy haykallar bilan arxitektura va haykaltaroshlik uyg'unligida yaratilgan. Bu ikki san'at na'munasi badiiy-g'oyaviy jihatdan majmuaga bir butunlik baxsh etmoqda. Monumental san'atning quyidagi funksiyalari mavjud:

-Estetik – makonni bezaydi, tomoshabinga ma'naviy zavq beradi. Tarixiy-ma'naviy – xalqning tarixini, milliy o'zligi va an'ana-qadriyatlarini, tarixiy shaxslarini eslatadi.

-Ideologik – mustaqillik, taraqqiyot, milliy birlik g'oyalarini targ'ib qiladi. Madaniy-tarbiyaviy – yosh avlodga milliy g'urur va estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi.

Toshkent shahrida mustaqillik davri, ayniqsa 2017-yildan so'ng qurilgan inshootlar – madaniy maskanlar, istirohat bog'lari, san'at saroylari va madaniyat markazlari – o'zbek me'morchiligida yangi bosqichni boshlab berdi. So'nggi yillarda arxitektura nafaqat muhandislik yoki estetik yechimlarni, balki milliy g'oya, ma'naviy uyg'onish, va madaniy xotira timsolini ifodalovchi kuchli vositaga aylandi. Aynan shu jihatdan tasviriy san'at, ayniqsa monumental san'at bilan arxitektura o'rtasidagi uzviy bog'liqlik markaziy o'ringa chiqdi.

Mustaqillikdan so'ng yaratilgan har bir me'moriy obyekt o'zbek xalqining o'zligini qayta anglash jarayonida muhim ramziy vositaga aylandi. Mustaqillik davri me'morligini ikki davrga bo'lish mumkin. 1991 yildan to 2017 yilgacha va 2017-yildan bugungi kunga qadar. Mustaqillikning dastlabki davrida milliy me'morlik sharqona uslubda rivojlandi. Binolar tashqi ko'rinishida sharqona uslub, oq rang ustunligini kuzatish mumkin. Bu davrda madaniyat va istirohat bog'larida tarixiy shaxslar va olimlar haykallarini o'rnatish jarayoni keng rivojlandi. Tasviriy san'atda ham tarixiy shaxslar obraziga alohida e'tibor qaratildi. Bu davrda "Temuriylar tarixi davlat muzeyi", "Tasviriy san'ay galereyasi", "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi" kabi inshootlar qad rostladi. Binolar tashqi tomonidan ulug'vor, milliy unsurlarga boy edi. Shuningdek ko'plab inshootlar qayta ta'mirlandi. Bino ichki interyerlari mustaqillik ruhiga monand qayta bezatildi. Mustaqillikni dastlabki yigirma yilligida bunyod etilgan binolar monumental tasviriy san'at asarlari bilan boyitildi. Birgina "Temuriylar tarixi davlat muzeyi" – ichki zalidagi 1200 kvadrat metrli devoriy rasm tarixiy voqealarni an'anaviy va zamonaviy talqinlar bilan yoritadi. Ushbu mahobatli devoriy asar Temuriylar saltanati tarixi va uning bugungi kunga ta'siri haqida hikoya qiladi.

2017-yildan keyingi poytaxt me'morligi keskin rivojlanganligini ko'rish mumkin. Binolar tashqi jihatdan zamonaviy, ulkan va o'zgacha uslubda qurila boshladi. Birgina turar joy mavzelari borasida yuqori ko'rsatgich ko'zga tashlana boshlandi. "Yunusobod City", Olmazor city", Tashkent City", "Alfraganus" kabi

turar joy mavzelari qad rosladi. Zamonaviy turar joylarga monand ravishta aholi hordiq chiqaradigan bog'lar va sayr maydonlari qurildi. Istirohat bog'laridagi haykallar, madaniyat markazlaridagi freskalar – bularning barchasi san'at vositasida xalq ruhiyatiga, madaniy xotirasiga, tarixiy ongiga murojaat qilishdir. Bu yondashuv shunchaki dizayn emas, xalqning o'zligini ifodalovchi vizual tildir. Toshkent shahridagi yangi arxitektura namunalarida milliy naqshlar, tarixiy obrazlar, zamonaviy minimalizm va interaktiv texnologiyalar muvaffaqiyatli uyg'unlashmoqda. Bu uyg'unlik orqali shahar vizual muhitida tarix bilan hozirgi zamon muloqoti yaratilmoqda. Bu yondashuv kelajak avlodlar uchun barqaror madaniy muhit yaratishga xizmat qiladi. Birgina Toshkentdagi "Tashkent City Park" hududida zamonaviy haykallar bilan bir qatorda erkin shakldagi abstrakt installyatsiyalar ham o'rnatilgan. Tashkent City parkidagi instalyatsiyalar, haykallar va foni arxitektura elementlari nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholining ham madaniy dunyoqarashiga ta'sir qilmoqda. Park hududida o'rnatilgan zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan favvoralar, "animal sculpture" zonasidagi dekorativ hayvon shaklidagi installyatsiyalar, ko'l bo'yidagi yorug'lik bilan o'ynaydigan haykaltaroshlik na'munalari – bularning barchasi zamonaviy san'atning ochiq shakli sifatida jamoatchilik estetikasi bilan bevosita muloqot qiladi. Poytaxtdagi "Tashkent City Park" o'zining boy san'at merosi va zamonaviy arxitekturasi bilan ajralib turadi. Zamonaviy Toshkentning yuragida joylashganushbu maskan – bu nafaqat dam olish makoni, balki zamonaviy san'at ekspozitsiyasining ochiq osmon ostidagi galereyasidir. Park hududida joylashgan installyatsiyalar va haykallar zamonaviy san'atning shahardagi aksidir.

"Birlik halqasi" installyatsiyasi – xalqaro do'stlik va madaniy uyg'unlik ramzi sifatida yaratilgan. Metall va oynadan ishlangan bu installyatsiya yorug'lik bilan o'zgaruvchan ko'rinishga ega bo'lib, tun qorong'usida yorqin ranglar bilan porlaydi.

"Kelajak sari" haykali – abstrakt shakldagi zamonaviy haykal bo'lib, inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlarini ramziy ifodalaydi. Bu haykal yoshlar orasida mashhur "selfie point" ga aylangan.

Bolalar uchun interaktiv san'at inshootlari – "rangli quvurlar" installyatsiyasi yoki "nurning tovushi" deb nomlangan tajriba maydonlari bolalarning estetik didini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur park 2019-yili tashkil etilgan bo'lib unda sun'iy ko'l, 4500 dan ortiq betakror o'simlik va gular mavjud. Shuningdek, bog' hududida saqlanib qolgan (va restavratsiya qilingan) tarixiy ob'ektlar ham mavjud. Masalan, "Orifjonboy ota masjidi" – XX asr boshlarida bunyod etilgan. Park o'z-o'zidan "ochiq osmon ostidagi galereya" sifatida to'rtinchi san'iy attraksionlar, favvoralar, fotoyozuv zonalari, ko'priklar va suv elementlari orqali

bezatilgan joylar bilan ajralib turadi. Bular instalyatsiyalarning bir qismi bo'lishi mumkin. Bu san'at asarlari nafaqat ko'zni quvontiradi, balki tomoshabinni o'ylashga, his qilishga undaydi. Tashkent City'dagi bu kabi san'at inshootlari – zamonaviy urbanistik dizayn bilan san'at uyg'unligining yorqin ifodasidir. Yana bir shunday maskanlardan biri 104 gektar maydonda joylashgan “Yangi O'zbekiston bog'i”dir. Unda sun'iy ko'llar va favvoralar, Bolalar o'yin maydonchalari, sport maydonchalari, ko'kalamzor makonlar mavjud. Bog'ning o'rtasida “Istiqlol majmuasi” – mamlakat mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlangan majmua qad rostlagan. Majmua nafaqat mustaqillik yillaridagi yutuqlarni, balki butun O'zbekiston davlatchiligining uzoq tarixini aks ettirishga mo'ljallangan. “Yangi O'zbekiston bog'i” va undagi “Istiqlol majmuasi” me'moriy yechimida qadimiy davlatchilik tariximiz, xalqimizning o'zligiga bo'lgan ishonchi ramziy kompozitsiyalarda aks ettirilgan. Majmua atrofida shakllantirilgan landshaft, sun'iy ko'llar, tabiat bilan uyg'unlashtirilgan yo'laklar va favvoralar – bularning barchasi shunchaki obodonlashtirish emas, balki milliy estetik tafakkurning fazoviy ifodasidir. Tarixiy yodgorlik elementi O'zbekiston davlatchiligining 3000 yillik tarixi, mustaqillik davri va bugungi “Yangi O'zbekiston” g'oyalarini aks ettiruvchi kompozitsiyalar majmuidan iborat. Bog' nomi “Yangi O'zbekiston” bo'lishi, uning maqsadlari va mazmuni bilan uyg'un. Bog' orqali yangi davr, yangilanish, taraqqiyot va ma'naviy uyg'unish tushunchalari ifodalangan.

So'nggi yillarda Toshkent shahrining me'moriy qiyofasi keskin o'zgarib, yuksalish bosqichiga chiqdi. Ushbu o'zgarishlar birgina iqtisodiy taraqqiyot yoki qurilish texnologiyalarining rivoji bilan izohlanmaydi – bu, eng avvalo, xalq tafakkurining, milliy ong va estetik qarashlarning yangilanishidir. Bugun Toshkent shahrida qad ko'targan yangi inshootlar – bu oddiy bino emas, balki san'at, g'oya, tarix, orzu va tafakkurning uyg'un namunalari. Ayniqsa, monumental san'at vositasida boyitilgan jamoat binolari nafaqat shahar manzarasini, balki uning ichki va xalqaro nufuzini oshirayotgan kuchli madaniy brendga aylanmoqda. Masalan, Toshkent metropoliteni – nafaqat transport vositasi, balki chinakam yer osti galereyasi. Mustaqillik yillarida “Mustaqillik”, “O'zbekiston”, “Buyuk ipak yo'li”, “Turkiston” kabi bekatlarda yaratilgan monumental bezaklar milliy g'urur, tarixiy yodgorlik, va zamonaviy g'oyalarni birlashtiradi. Har bir bekat san'at asaridek qurilgan: marmar, ganch, bo'yoq va chiroq vositalari bilan uyg'unlashtirilgan panellar, naqshlar orqali betakror estetik muhit yaratilgan.

Monumental san'at bugungi Toshkentda shunchaki dekor emas. Bu san'at – shahar aholisining o'z tarixiga bo'lgan hurmatini, ertangi kuniga bo'lgan ishonchini mustahkamlovchi vositadir. U estetik tarbiyaning qudratli vositasiga aylangan.

Jamoat makonlaridagi haykallar — bu muzeydagi sukunatdagi ekspozitsiyalar emas. Ular har kuni odamlar orasida, hayotda, harakatda. Bu esa san’atni elitaga emas, jamiyatga, har bir shaxsga yaqinlashtiradi. Yuqorida tilga olingan inshootlar bugungi kunda yoshlar orasida “fotomakonlar”ga aylangan. Ammo bu faqatgina tashqi ko’rinishga emas, balki san’atning ichki estetik kuchiga — o’ziga tortuvchi, so’zsiz ta’sir etuvchi kuchga asoslanadi. Mustaqillikdan keyingi monumental san’atda asosiy tendensiya bu — milliylik va zamonaviylik uyg’unligidir. Naqsh va shakllar orqali o’zligimizni ifodalab, texnologiya va yangi materiallar orqali zamonga moslashish — bu nafaqat san’at, balki ong evolyutsiyasining ko’rinishidir. Bugun bizda zamonaviy arxitektura “shisha devor”lar bilan cheklanib qolmayapti — u boy estetik qatlam bilan boyimoqda. Toshkentda shakllanayotgan bu yangi monumental ifoda — bu san’at emas, balki xalq ruhining arxitektura tilida so’zlashidir. Unda tarix bor, bugun bor, ertangi orzular bor. Bu obyektlar vaqt o’tgan sayin shunchaki bino emas — xotira, madaniyat va g’urur manbaiga aylanmoqda. So’nggi yillarda me’morlik va monumental san’at vositasida yaratilgan jamoat inshootlari Toshkent shahrining ichki va xalqaro nufuzini oshirmoqda. Bu inshootlar nafaqat oddiy insonlarga, balki turistlarga ham o’ziga xos shahar brendi sifatida ta’sir ko’rsatmoqda. Toshkent shahrida mustaqillikdan keyin qurilgan inshootlar orqali arxitektura va tasviriy san’at o’zaro uyg’unlikda rivojlanib, estetik, g’oyaviy va ijtimoiy kuchga ega majmualarni vujudga keltirmoqda. Bu uyg’unlik — bu san’at emas, xalq tafakkurining, madaniy evolyutsiyasining real ko’rinishidir. Shahar makonida monumental san’atning mavjudligi — bu fuqarolarning o’zligiga, tarixiga va kelajakka bo’lgan ishonchining timsolidir. Bunday betakror makonlar jamiyatni estetik jihatdan tarbiyalaydi, madaniyatni saqlaydi va mustahkamlaydi. Eng muhimi — bunday inshootlar vaqt o’tgan sayin oddiy bino emas, xalq ruhining, milliy o’zlikning arxitekturaviy ifodasi sifatida tarixda qoladi. Mustaqillikdan keyingi O’zbekiston monumental san’atida milliy meros va zamonaviylik uyg’unligi asosiy tendensiya sifatida shakllandi. Metro bekatlaridagi mozayka, teatr binolaridagi rel’yefli panellar, bog’larda o’rnatilgan haykallar va street art namunalarining barchasi shahar makonini madaniy markazga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

Islomov, S. O’zbekiston me’morchiligi: mustaqillik davri. — Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015.

Gafurov, B. Toshkent metrosi: Arxitektura va dizayn. // Arxitektura va san’at jurnali, 2021, №4, 23-27-betlar.

Toshkent shahar hokimligi rasmiy veb-sayti – www.toshkent.uz (2023-yil yangiliklar bo'limi)

Yuldashev, A. Monumental san'at: Kecha va bugun. – Toshkent: San'at, 2019.